


2020-yil yanvar-mart oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra 26,1 mingga yaqin faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 15,8 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar jalb qilingan.

2020-yil 1-aprel holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 10,9 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, ularning ulushi 69,1 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,
kichik tadbirkorlik sub'ektlarning ulushi, % da**
(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)



2020-yil 1-aprel holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 39,7 % ga yaqin.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,5 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,6 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 268,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,8 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga 31,6 %, transport xizmatlariga 21,2 %, moliyaviy xizmatlarga 15,4 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,2 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 445,7 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-fevral oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 778,9 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020-yil yanvar-mart oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi (yanvar-fevral oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 246,3 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 162,3 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 122,2 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 32,7 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 124,5 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 95,4 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 76,5 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 32,6 mlrd. so'mga oshgan.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	2 268,0	109,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	117,9	116,4
moliyaviy xizmatlar	348,5	130,0
transport xizmatlari	480,2	104,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	455,4	104,9
yashash va ovqatlanish xizmatlari	52,6	96,7
savdo xizmatlari	716,6	104,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	71,4	100,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	92,3	128,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	32,8	135,6
ijara xizmatlari	62,5	106,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	81,7	104,9
shaxsiy xizmatlar	79,6	101,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	35,8	112,2
boshqa xizmatlar	96,1	115,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 135,6 % da, moliyaviy xizmatlar 130,0 % da, ta'lim sohasidagi xizmatlar 128,1 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 116,4% da, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 112,2 % da, transport xizmatlar 104,7 % larda qayd etildi.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 100,7 % da, shaxsiy xizmatlar 101,9 % da va savdo xizmatlari 104,0 % larda kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 31,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (21,2 %),

moliyaviy xizmatlar (15,4 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,2 %) egallaydi.

2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da




2020-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 716,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 31,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 124,5 mlrd.

so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



- Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllarni savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.


2020-yil yanvar-mart oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 83,9 % ni tashkil etadi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,8 % ga yetdi.



Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,3 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



-  Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
-  Telekommunikatsiya xizmatlari

2020-yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 117,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-fevral oylari) davrga nisbatan o'sishi 39,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 52,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,3 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan
ta'minlash bo'yicha xizmatlar
89,1 %

Yashash bo'yicha xizmatlar
10,9 %



Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar
100,0 %


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,1 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,9 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 348,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (93,5%) tashkil etadi.

2020-yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da




**2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	2 268,0	109,8
Qarshi sh.	1 115,3	106,9
Shahrisabz sh.	61,1	106,8
tumanlar:		
G'uzor	81,2	110,5
Dehqonobod	54,4	110,7
Qamashi	76,3	106,7
Qarshi	99,9	110,4
Koson	131,7	110,7
Kitob	106,2	106,8
Mirishkor	53,0	110,4
Muborak	73,4	102,9
Nishon	78,0	109,4
Kasbi	52,6	106,3
Chiroqchi	88,6	103,8
Shahrisabz	96,2	107,3
Yakkabog'	100,1	111,8

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1 115,3 mlrd. so'm), Koson (131,7 mlrd. so'm), Kitob (106,2 mlrd. so'm) va Yakkabog' (100,1 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Kasbi (52,6 mlrd. so'm), Mirishkor (53,0 mlrd. so'm) va Dehqonobod (54,4 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


2020-yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Muborak (102,9%), Chiroqchi (103,8 %) va Kasbi (106,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

2020-yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (49,2 %), Koson (5,8 %), Kitob (4,7 %) va Yakkabog' (4,4 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,3 %), Mirishkor (2,3 %) va Dehqonobod (2,4 %) tumanlari to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi
 (998)75-221-44-32
 (998)75-220-04-12